

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

BOLALAR RIVOJLANISHIDA NORMAL VA KASALLIK KELTIRUVCHI PATALOGIK HOLATLAR

Ergasheva Yulduzoy Olimovna

Angren Universiteti “Davolash ishi” fakulteti

“Umumdavolash ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Yigitaliyev Sardorbek Shuhratjon o‘g‘li

Angren Universiteti “Davolash ishi” fakulteti

DI-24/1-1kurs talabasi

Annotatsiya: Bolalar rivojlanishi — bu murakkab jarayon bo‘lib, u jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Har bir bola o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi, lekin ba‘zi hollarda rivojlanish jarayoni normaldan chetga chiqishi mumkin. Ushbu maqolada bolalarning rivojlanishidagi normal va patologik holatlar haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: bola, rivojlantirish, patologik holatlar, kasalliklar, normal rivojlanish, intellektual ko‘nikmalar.

НОРМАЛЬНЫЕ И ПАТОЛОГИЧЕСКИЕ СОСТОЯНИЯ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ, В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ

Эргашева Юлдузой Олимовна,

старший преподаватель кафедры «Общая терапия»

факультета «Лечебное дело»

Ангренского университета.

Йигиталиев Сардорбек Шухратжонович,

студент 1 курса группы DI-24/1

факультета «Лечебное дело»

Ангренского университета.

Аннотация: Развитие ребенка – сложный процесс, включающий в себя физические, умственные, социальные и интеллектуальные навыки. Каждый ребенок проходит уникальный путь развития, но в некоторых случаях процесс развития может отклоняться от нормы. В данной статье представлена подробная информация о нормальных и патологических состояниях развития детей.

Ключевые слова: ребенок, развитие, патологические состояния, заболевания, нормальное развитие, интеллектуальные способности.

NORMAL AND PATHOLOGICAL CONDITIONS CAUSING DISEASES IN CHILD DEVELOPMENT

Ergasheva Yulduzoy Olimovna,

Senior Lecturer at the Department of General Medicine,

Faculty of Medicine, Angren University.

Yigitaliyev Sardorbek Shuhratjon o‘g‘li,

1st-year student of group DI-24/1,

Faculty of Medicine, Angren University.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Abstract: Child development is a complex process that includes physical, mental, social and intellectual skills. Each child follows a unique development path, but in some cases the development process may deviate from the norm. This article provides detailed information about normal and pathological conditions in children's development.

Key words: child, development, pathological conditions, diseases, normal development, intellectual skills.

KIRISH.

Bolalarning rivojlanishi — bu hayotning dastlabki yillarida sodir bo'ladigan muhim jarayon bo'lib, u jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tadi, lekin bu jarayonning har bir bosqichida muayyan normal ko'rsatkichlar va belgilarga ega. Bolalarning rivojlanishi nafaqat ularning sog'lig'i va farovonligi uchun, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun ham muhimdir. Rivojlanish jarayoni davomida bolalar o'z his-tuyg'ularini anglash, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu jarayonning har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bolalarning o'zaro aloqalari, o'z-o'zini anglashlari va atrof-muhitga moslashish qobiliyatlarini shakllantiradi. Biroq, ba'zi hollarda bolalarning rivojlanishi normaldan chetga chiqishi mumkin, bu esa patologik holatlarni keltirib chiqaradi. Rivojlanishdagi kechikishlar yoki anomaliyalar bolalarning kelajakdagi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, bolalarning rivojlanishini diqqat bilan kuzatish va zarur hollarda yordam ko'rsatish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Normal rivojlanish — bu bolalarning o'z yoshiga mos keladigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni. Go'dak, emadigan bola — bir yoshgacha bo'lgan bola. Go'dak organizmi hali yetarli rivojlanmagan, a'zolari takomillashmagan, turli xil kasalliklarga tez chalinadigan, shu sababli sinchiklab parvarish qilishga muhtoj bo'ladi. Bu davrda bolaning bo'yi va vazni tez o'sadi, unda energiya sarfi ortadi, shu bois uning ko'pgina, xususan hazm, nafas, yurak-tomir va boshqa sistemalari faoliyati jadal takomillasha boradi. Bolani yaxshi parvarish qilinsa va to'g'ri, iloji boricha ona suti bilan boqilsa, u sog'lom bo'lib, vazni oshaveradi. Go'dak uchun eng zarur ovqat — ona suti, unda bolaning sog'lom va to'g'ri o'sishi uchun zarur moddalar — oqsil, yog', uglevod, tuz, suv, vitaminlar, shuningdek, himoya antitelolari bor, ular bola hayotining dastlabki oylarida ba'zi bir yuqumli kasalliklardan saqlab qoladi. Ko'krak suti boshqa ovqatlarga qaraganda yaxshi hazm bo'ladi va to'la-to'kis singadi, tarkibida mikroblar bo'lmaydi. [2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bolaning normal o'sishi uni bekam-u ko'st ovqatlantirishga bog'liq. Bola bir oylik bo'lishiga yaqin bo'yi 3-3,5 sm, bir yoshida esa 25-27 sm uzayadi. Dastlabki 3 oyda vazn hafta sayin 200-250 g dan, 6-oylarda 150-200 g dan oshib boradi. 6 oylik Go'dak vazni tug'ilgandagi vazniga nisbatan ikki hissa, 1 yoshida uch hissa oshadi, bu davrda vazni 10–11 kg ga yetib qoladi. Bolaning harakat faoliyati va psixikasi juda tez rivojlanadi: avvaliga bola o'tira boshlaydi, keyin emaklab ketadi va nihoyat, turadigan bo'ladi, ota-onasini taniydi. Bir yoshga yaqin avval kattalar yordamida, keyin o'zi yuradi; tili chiqadi va murg'ak qiyofasiga kiradi; u nimjonligiga qaramay o'zining hissiyotlari, kechinmalari bo'ladi. Bu davrda bola organizmining hamma a'zo va sistemalari yana ham rivojlanadi, biroq uncha takomillashmagan va o'ziga xos bo'ladi. Terisi nozik, salga shikastlanadigan va o'ziga xos parvarishni talab etadi. Dastlabki 3-4 oyda ter bezlari funksiyasi sust bo'lib, bu issiqlik idora etilishini yomonlashtiradi, harorat o'zganganida bola salga issiqlab ketishi yoki sovqotishi mumkin. Go'dak yarim yoshligida ayniqsa yuzda teri osti yog' qavati yaxshi rivojlanadi. Go'dak hayotining dastlabki

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

oylarida suyaklari qisman tog'ay to'qimasidan iborat bo'lib, bora-bora suyak to'qimasiga aylanadi. Tog'aylar sohasida suyaklanish nuqtalari paydo bo'ladi. Katta liqildoq kechi bilan 1,5 yoshga borib yopiladi; kalla suyaklari oralig'idagi choklar 3-4 oyga borib sekin-asta zichlashadi. Bolaning umurtqa pog'onasi juda mayin bo'lib, salga qiyshayadi. Bola noto'g'ri parvarish qilinsa, u sof havoda kam bo'lsa, skeletining shakllanishi buziladi — bu raxit va boshqa kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. taxminan 6 oygacha bolada tish bo'lmaydi; 6-8 oylikda tish chiqa boshlaydi, bola bir yasharliligida 8 ta tishi bo'ladi. Tish chiqishi maromida, hech qanday kasallik alomatlarisiz kechadi, ba'zan tishi chiqayotgan bola injiq bo'lib qoladi; darmonsizlanish, uyqusizlik, isitmalash, ich ketishi va boshqa kuzatilishi mumkin. Bu vaqtda darhol shifokorga murojaat etish kerak. [3]

Patologik rivojlanish — bu bolalarning rivojlanish jarayonida normal ko'rsatkichlardan chetga chiqishi. Bu holatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin va quyidagi asosiy turlarga bo'linadi Bolaning rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ona qornida o'sish davri, chaqaloqlik davri, bola tug'ilgandan keyingi (4 hafta), emizikli davri (bir yoshgacha), yasli davri (2 yoshgacha), maktabgacha davri (7 yoshgacha), boshlang'ich maktab yoshidagi (12 yoshgacha) va o'smirlik yoki balog'atga yetish davri (18 yoshgacha) farq qilinadi. Ona qornida o'sish davri bolaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi; homiladorlik davridagi zararli omillar (kasalliklar, intoksikatsiyalar, turmush va ovqatlanish sharoitining kamko'stligi, dori-darmonlar ta'siri) onagagina emas, qornidagi homilaning o'sishi va rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Bu davrda ko'proq tug'ruq vaqtidagi zararlanishlar (asfiksiya, shikastlanishlar, falajlar, stafilokokk infeksiyalar) kuzatiladi. Chaqaloqlar ayrim infeksiyon kasalliklarga tug'ma chidamli bo'ladi, biroq ularga (ayniqsa, chala tug'ilgan bolalarga) yiringlatuvchi mikroblar avvalo, stafilokokklar tez ta'sir qilib, kindik jarohatining yiringli yallig'lanishiga, chilla yaraga va hatto chaqaloqlar sepsisi kabi og'ir kasallikka sabab bo'ladi. [1]

Bu davrda zotiljam ham xavfli kasallik hisoblanadi. Emizikli davrida bola ovqatning o'zgarishiga moslanishi ancha qiyin, uni noto'g'ri ovqatlantirilganda me'daichak buzilishlari (diareya, ichak infeksiyalari me'da ichak boshqalar), moddalar almashinuvining buzilishi kuzatiladi. Bu davrda nafas va hazm a'zolarining kasalliklari og'ir o'tadi; bolani noto'g'ri ovqatlantirish, sof havo va quyosh nuridan yetarli bahramand etmaslik natijasida raxit avj oladi, diatez, spazmofiliya botbot uchraydi. Yasli yoshidagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'z tengqurlari bilan o'ynab yurgan chog'ida ko'kyo'tal, qizamiq, difteriya, tepki va boshqa yuqishi mumkin. Bundan tashqari, onasidan o'tgan immunitetning kuchi yo'qoladi. Shuning uchun bu davrda bolalar emlanib (vaksinatsiya), immunitet vujudga keltiriladi. Maktab yoshidagi bolalarda yuqumli kasalliklar ko'proq uchraydi. Emizikli bola ko'kyo'tal va qizamiq bilan og'riganda ko'pincha o'pkasi ham yallig'lansa, maktab yoshidagi bolalarda bu kasalliklar aksari asoratsiz o'tadi (o'pka yallig'lanmaydi). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda angina, yurak va buyrak kasalliklari, shuningdek allergik kasalliklar ko'proq uchraydi. Kattaroq bolalarda va o'smirlik (balog'atga yetish) davrida yuraktomir, nerv va endokrin sistemalar (ichki sekresiya bezlari) faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Sof havodan yetarli bahramand bo'lmaydigan, sport bilan shug'ullanmaydigan, kun tartibiga rioya qilmaydigan o'quvchilarda bu sistemalar ko'proq kasallanadi. Demak, Bolalar kasalliklari ning turli shakllari organizmning chidamliligiga, yuqumli kasalliklarga qarshilik ko'rsatish kuchiga, bolaning yoshiga bog'liq. Har bir kasallik, u qanday bo'lishidan qat'i nazar (yuqumli yoki yuqumsiz) jismonan barkamol, sog'lom bolada yengilroq, ozg'in, nimjon bolada esa og'irroq o'tadi. Bir xil mikroblar qo'zg'atgan kasallik bolaning turli yoshida turlicha kechadi. Bolalar kasalliklari ning oldini olishda bola organizmining o'ziga xos xususiyatlari ko'zda tutiladi. Emizikli davrda ona suti eng maqbul oziq bo'lib, bolani qo'shimcha ovqatlantirish zaruriyati bo'lganda faqat vrach (pediatr) bilan

maslahatlashib olish kerak. Go'daklarni sut oshxonalari orqali ovqatlantirishning to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega. Bolalar kasalliklari qancha barvaqt aniqlanib, vaqtida davolansa, asorati qolmaydi. Buning uchun kattalar va otaonalar Bolalar kasalliklari ning oldini olish usullarini va dastlabki belgilarini bilishlari, bolada kasallikka xos biror alomat sezganda darhol shifokorga murojaat etishlari zarur.

XULOSA.

Bolalarning rivojlanishi — bu murakkab va ko'p qirrali jarayon. Normal rivojlanish bolalarning sog'lom va baxtli hayot kechirishlari uchun zarurdir. Patologik rivojlanish holatlari esa bolalarning kelajakdagi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, bolalarning rivojlanishini diqqat bilan kuzatish va zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashish muhimdir. Har bir bola o'ziga xos va o'z vaqtida yordam ko'rsatish, ularning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. X. K. Шодмонов, X. Ш. Эшмуродов, Турсунова О.Т. «Нервные и психические болезни» Ташкент – 2004 г.
2. «Патология детей старшего возраста» - под редакцией А.А. Баранова, М, - 1998.
3. Парийская Т.В.. Справочник по педиатрии. ЭКМО. Москва 2004 г.
4. Руководство детской артродологии. Под ред. АМН СССР М.Я Студеникина и проф. Яковлевой.-Л. 1987.-С. 162-170.
5. Правочник врача общей практики. Под редакцией акад. РАМН. - Р. Палеева. ЭКМО 2002 г.
6. Справочник педиатров. Санкт-Петербург, Москва, 2004. 18.
7. Исмаилович С. А. Социально-психологические проблемы воспитания самостоятельно мыслящей, творческой личности в образовательном процессе // СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ ЖУРНАЛ ЛИТЕРАТУРЫ, ФИЛОСОФИИ И КУЛЬТУРЫ. - 2021. - Т. 2. - нет. 12. - С. 4-7.